

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA
TIZIM MAS'UL XODIMLARINING ASOSIY VAZIFALARI
BO'YICHA TAVSIYANOMA**

I. Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlarining vazifalari:

1. Maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish natijalarini (Respublika va xorijiy) hamda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan o'tkazilgan reyting natijalarini tahlil qilish.

Tahlil natijalariga ko'ra, yuqori natija ko'rsatgan maktablarning tajribalarini ommalashtirish, ularning o'qituvchilari va rahbarlarini rag'batlantirish, past natija ko'rsatgan ta'lim muassasalaridagi mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish.

2. Bitiruvchilari oliy ta'lim muassasasiga umuman kirmagan maktablarning birinchi navbatda davlat attestatsiya va akkreditatsiyasidan o'tishini ta'minlash.

3. Maktablarda dars taqsimotlarining qayta ko'rib chiqilishini va yuqori natija ko'rsatgan o'qituvchilarga ko'proq dars berilishini (1,5 stavkagacha) nazorat qilish.

4. Hududdagi umumta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini ularda sifatli ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun yaratilgan shart-sharoitlar nuqtai-nazaridan muntazam tahlil qilib borish, zarur ehtiyojlarni qoplash bo'yicha mahalliy hokimliklar bilan hamkorlik qilish.

5. O'quvchilarni 9-sinfdan boshlab qiziqishlari va bilim darajalariga ko'ra tegishli oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirish ishlarini tashkil etish.

Oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlari o'tkaziladigan fanlardan hududlardagi mavjud oliy ta'lim muassasalari va akademik litseylar bilan hamkorlikni kuchaytirish va tajribali professor-o'qituvchilarning maktablarda "mahorat darslari" o'tishlarini tashkil etish.

6. Umumta'lim maktablarining informatika xonalarida o'qituvchilar va yuqori sinf o'quvchilari uchun darsdan keyingi vaqtlarda Davlat test markazining saytida (<https://dtm.uz/info/recommendations>) e'lon qilingan namunaviy test savollaridan foydalangan holda o'z bilimlarini sinab ko'rishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlash.

7. Hududdagi maktablarda o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni tahlil qilish, ularni qoplash choralarini ko'rish, jumladan:

Respublikadagi pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan mahalliy yoshlarni ishga jalb qilish bo'yicha oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;